

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 iyundagi «O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi huzuridagi Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil e

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 iyundagi «O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi huzuridagi Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 433-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 iyundagi «O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi huzuridagi Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 433-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida ko'rsatilgan qarori bilan:

a) Quyidagilar:

O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi huzuridagi Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil etish jamg'armasi Vasiylik kengashining tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi huzuridagi Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi ijro etuvchi apparatining tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi huzuridagi Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi raisiga zarurat bo'lganda Jamg'armaning ijro etuvchi apparati tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining tasdiqlangan cheklangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilganligi;

b) Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyundagi 391-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Xususiyashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Xususiyashtirilgan korxonalariga ko'maklashish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomga (O'zbekiston Respublikasi QT, 2017 y., 6-son, 106-modda) 4-ilovaga muvofiq qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy xo'jjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari S.Xojametov zimmasiga yuklatilsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko'rib chiqildi:



- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)